



**THE STATE EDUCATION DEPARTMENT /
THE UNIVERSITY OF THE STATE OF NEW YORK / ALBANY, NY 12234**

Lissette Colon-Collins, Assistant Commissioner | Office of Bilingual Education and World Languages

55 Hanson Place, Room 594
Brooklyn, New York 11217
Tel: 718-722-2445 Fax: 718-722-2459

89 Washington Avenue, Room 528EB
Albany, New York 12234
Tel: 518-474-8775 Fax: 518-474-7948

**NYU-YORK SHTATIDAGI INGLIZ TILI O'RGANUVCHILARNING
OTA-ONALARJI HUQUQLARI TO'G'RISIDAGI QONUN**

Nyu-York shtati Ta'lif departamentining (New York State Education Department (NYSED)) "Commissioner Regulations Part 154" sizlarni – "Ingliz tili o'rganuvchilar"ning (English Language Learners (ELLs)) ota-onalarini/vasiyalarini – quyidagilar bilan ta'minlaydi:

1. O'zingiz yoki farzandlaringizning immigratsiya maqomingiz qanday (masalan, oila a'zolaringiz fuqaro, immigrant ekani yoki hujjatsiz) bo'lishidan qat'i nazar, farzandlaringizning o'zingiz yashaydigan manzildagi okrugga tegishli mактабда siz yoki farzandlaringiz gaplashadigan tilda bepul davlat ta'limi olish huquqi.
2. O'zingiz yoki farzandlaringizning immigratsiya maqomingiz haqida oshkor qilinishi mumkin bo'lgan ma'lumot berish so'ralmasdan turib, farzandlaringizni mактабга joylashtirish huquqi. Sizdan ijtimoiy ta'minot kartasi (Social Security card) yoki uning raqami, immigratsiya vizasi yoki viza maqomi, fuqarolik hujjatlari yoki fuqarolik maqomi haqida ma'lumot berish so'ralsi mumkin emas.
3. Federal qonunlariga asosan, mактаб okrugi bilan tang vaziyatlarda muloqot qilish uchun o'zingiz ma'qul ko'rgan tilga tarjima qilish uchun malakali og'zaki/yozma tarjimon olish huquqi.
4. 20 yoki undan ortiq ona tili/asosiy tilda sinf talablari darajasida gaplasha oladigan o'quvchi bo'lgan taqdirda farzandlaringizni ikki tilli ta'lif (Bilingual Education (BE)) dasturida o'qitish huquqi. [1]
5. Farzandlaringiz ingliz tili o'rganuvchilar maqomini olgani va "Ikki tilli ta'lif" (Bilingual Education) yoki "Ingliz tili yangi til sifatida" (English as a New Language) (ilgari "Ingliz tili yangi til sifatida" deb atalgan) dasturiga qabul qilingani to'g'risida yozma bildiruv olish huquqi. [2]
6. Farzandlaringiz o'qiyotgan mактаб okrugining shtat standartlari, sinov imtihonlari, ingliz tilini o'rganuvchilardan mактаб "Ingliz tili o'rganuvchilardan (ELL)" qanday natijalar kutayotgani, shuningdek, "Ikki tilli ta'lif" (Bilingual Education) va "Ingliz tili yangi til sifatida" dasturlarining maqsadi va talablari to'g'risidagi yuksak sifatli tanishuv mashg'ulotida qatnashish huquqi. Ushbu tanishuv mashg'uloti mактаб dasturiga yakuniy qabul qilishdan oldin siz ma'qul ko'rgan tilda o'tkazilishi shart.
7. Farzandlaringizning ingliz tilini qanday o'zlashirayotgani va ular ikki tilli ta'lif dasturida qatnashayotgan bo'lsa, ona tilini qanday o'zlashtirayotgani xususida ham ma'lumot olish huquqi.
8. Mактаб xodimlari bilan boshqa umumiyl talab etilgan uchrashuvlardan tashqari farzandlaringizning umumiyl o'qishi va til o'rganish jarayonini muhokama qilish uchun uchrashish huquqi.

9. Farzandlaringizning "Ikki tilli ta'lim" (Bilingual Education) yoki "Ingliz tili yangi til sifatida" (English as a New Language) dasturiga 10 kun ichida qabul qilinish huquqi va "Ikki tilli ta'lim" (Bilingual Education) dasturida qatnashishdan voz kechish huquqi. Farzandlaringiz kamida "Ingliz tili yangi til sifatida" (English as a New Language) dasturi bo'yicha o'qitilishi kerak.
10. Agar farzandlaringiz o'qiyotgan mакtabda "Ikki tilli ta'lim" (Bilingual Education) dasturi o'tilmayotgan bo'lsa, ularning okrusingizdagi "Ikki tilli ta'lim" (Bilingual Education) dasturi ona tilingizda o'tilayotgan boshqa mакtabga o'tish huquqi.
11. Farzandlaringizning okrusingizda taklif etilayotgan yoshi va sinfiga mos hamma dasturlar va xizmatlardan, jumladan, sinfni bitirish uchun zarur va boshqa o'quvchilar foydalanayotgan barcha mакtab dasturlaridan teng foydalanish huquqi.
12. Farzandlaringizning barcha asosiy yo'l-yo'riqlarni olish hamda ingliz tili va o'qish/til san'ati, matematika, ilm-fan va jamiyatshunoslik singari boshqa fanlarni barcha bolalar bilan teng darajada o'rganish huquqi. ELL dasturi xizmatlaridan foydalanish huquqi asosiy fanlarni o'rganish uchun yo'l-yo'riq olish imkoniyatini cheklamaydi.
13. Farzandlaringizning o'quv dasturidan qo'shimcha mashg'ulotlarda (mакtab mashg'ulotlaridan keyingi klublar, sport va hk.) qatnashish huquqi. ELL dasturi xizmatlaridan foydalanish huquqi o'quv dasturidan qo'shimcha mashg'ulotlarda qatnashish imkoniyatini cheklamaydi.
14. Farzandlaringizning mакtab/okrug barcha o'quvchilarga ko'rsatadigan ko'mak rejalar bilan bog'liq yordam xizmatlaridan (masalan, pedagoglarning ko'mak berish xizmatlari) foydalanish huquqi.
15. Farzandlaringizning yiliga bir marta ingliz tilini qanday o'rganayotganini aniqlash uchun imtihondan o'tish hamda ularning o'quv imtihonlari, jumladan, Nyu-York shtati imtihonlaridan qanday o'tgani to'g'risida ma'lumot olish huquqi.
16. Farzandlaringiz ELL – Ingliz tili o'rganuvchilari bo'lib qolayotganida ularning yilma-yil va davomli ravishda "Ikki tilli ta'lim" (Bilingual Education) yoki "Ingliz tili yangi til sifatida" (English as a New Language) dasturini davom ettirish huquqi;
17. Mabodo yuqorida sanab o'tilgan huquqlardan birortasi buzilsa, Nyu-York shtati Ta'lim departamentining Ikki tilli ta'lim va jahon tillari idorasiga murojaat qilish huquqi.

1-800-469-8224raqamli **ELL ota-onalari uchun ishonch telefoni** ga qo'ng'iroq qiling, quyidagi manzilga e-pochta xabari jo'nating:: nysparenthotline@nyu.edu Qo'shimcha ma'lumot olish uchun quyidagi veb-sahifaga kiring: www.p12.nysesd.gov/biling
yoki quyidagiga xat yozing:

New York State Education Department
Office of Bilingual Education & World Languages
55 Hanson Place, Room 594
Brooklyn, New York 11217

[1] Nyu-York shahrida qabul qilingan kelishuv ("Aspira Consent Decree") qaroriga ko'ra, agar 15 yoki undan ortiq o'quvchi ikkita yonma-yon sinfda bir tilda gaplashsa, K-8 sinflarida "Ikki tilli ta'lim" (Bilingual Education) dasturi talab etiladi. Agar mакtabda ushbu talablarga javob beradigan o'quvchilar soni yetarli bo'lmay, okrugda yetarli bo'lsa, okrug "Ikki tilli ta'lim" (Bilingual Education) dasturi bilan ta'minlashi shart.

[2] Barcha ingliz tilini o'rganuvchilar (ELLS) ushbu til bo'yicha malakasini "Ingliz tili yangi til sifatida" (English as a New Language) kurslarida oshiradi. Bundan tashqari, "Ikki tilli ta'lim" (Bilingual Education) dasturida ishtirok etayotganlar Ona tili qoidalariidan (Home Language Arts) ham saboq oladi. "Ikki tilli ta'lim" (Bilingual Education) dasturidagi asosiy fanlar (masalan, matematika, ilm-fan va jamiyatshunoslik) ham ingliz, ham ularning ona tilida o'qitiladi. "Ikki tilli ta'lim" (Bilingual Education) dasturida qatnashmayotgan o'quvchilar asosiy fanlarni *ingliz tilida* o'qiydi.